

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs. 15/31.12.2020.I.09.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

YEGAMBERDIYEVA XURSHIDAXON ALISHEROVNA

**TEMIR YO'L TRANSPORTIDA EKSPLUATATSION FAOLIYAT
SAMARADORLIGINI OSHIRISH
("O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJ MISOLIDA)**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

| | |
|--|----|
| Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna Temir yo'l transportida ekspluatatsion faoliyat samaradorligini oshirish (“O'zbekiston temir yo'llari” AJ misolida) | 3 |
| Егамбердиева Хуршидахон Алишеровна Повышение эффективности эксплуатационной деятельности на железнодорожном транспорте (на примере АО «Узбекистон темир йуллари»)..... | 27 |
| Egamberdieva Khurshidakhon Alisherovna Improving the efficiency of operational work on railway transportation (on the example of JSC "Uzbekistan Railways")..... | 51 |
| E'lon qilingan ishlar ro'yhati Список опубликованных работ List of published works..... | 55 |

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs. 15/31.12.2020.I.09.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

YEGAMBERDIYEVA XURSHIDAXON ALISHEROVNA

**TEMIR YO'L TRANSPORTIDA EKSPLUATATSION FAOLIYAT
SAMARADORLIGINI OSHIRISH
("O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJ MISOLIDA)**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt815 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ifmr.uz) va «ZiyoNet» ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziynet.uz). joylashtirilgan.

| | |
|----------------------------|---|
| Ilmiy rahbar: | Gulamov Abdulaziz Abdullayevich iqtisod fanlari doktori, professor |
| Rasmiy opponentlar: | Gaibnazarova Zumrat Talatovna iqtisod fanlari doktori, professor Salimov Baxtiyor Tadjiyevich iqtisod fanlari doktori, professor |
| Yetakchi tashkilot: | Toshkent davlat texnika universiteti |

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc15/31.12.2020.I.09.04. raqamli ilmiy kengashning 2024 yil "___" _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100060, Toshkent shahri, Odilxujaev ko'chasi, 1 uy. Tel.: (+99871) 299-00-01; faks: (+99871) 299-00-01; e-mail: tstu_rektorat@tstu.ru

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (173 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil 100060, Toshkent shahri, Odilxujaev ko'chasi, 1 uy. Tel.: (+99871) 299-00-01; e-mail: tstu_rektorat@tstu.ru

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil "___" _____ dagi _____ -raqamli reyestr bayonnomasi).

O.K. Abduraxmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
i.f.d., professor

M.I. Akbarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, i.f.n., dotsent

A.A. Gulamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda temir yo'l transporti ekspluatatsion faoliyati samaradorligini oshirish uchun temir yo'l transportining cheklangan yuk o'tkazish qobiliyatidan kelib chiqqan holda yuk ko'tarish qobiliyati zahiralardan maksimal foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Chunki temir yo'l transporti jahon mamlakatlarining transport tizimida yetarlicha ulushga ega, bundan tashqari temir yo'l transportining zichligi ham oshib bormoqda, bu esa o'z navbatida temir yo'lning yuk ko'tara olish qobiliyati oshirish yo'llarini tadqiq qilishga ehtiyoj tug'dirmoqda. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida yuk tashish hajmi bo'yicha temir yo'l transportining ulushi avtomobil transportiga nisbatan kamroq – 25% (avtomobil transportining ulushi – 40%). Shimoliy Amerikada avtomobil va temir yo'l transportida tashish ulushi deyarli bir xil. Ba'zi MDH va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida yuk tashishda temir yo'l transportining ulushi kattaroq. Raqobatli yuk tashish bozorida temir yo'lning harkat tezligi, vagon o'qiga tushadigan og'irlik, poyezdlarning og'irligi boshqa transport turlaridan ustunlikni ta'minlash uchun yetarli ko'rsatkich bo'lib xizmat qilishi mumkin.¹

Temir yo'l transportida yuk tashish zichligini ortishi natijasida temir yo'l izlarining bandligi ortib, harakatlanuvchi tarkibning ish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Temir yo'l samaradorligini yaxshilashning muhim ta'sir etuvchi omillaridan biri vagonlarning yuk ko'tarish qobiliyatini oshirishdir. Avstraliya, Braziliya, Kanada, Xitoy, Hindiston, Rossiya, AQSh, Shvetsiya mamlakatlarida og'ir tipdagi harakatlanuvchi tarkibdan keng foydalanilmoqda. Og'ir harakatlanuvchi tarkibdan foydalanishda respublikamizdagi vagonsozlik sanoati va transport kompaniyasi oldida sharq va g'arb mamlakatlari kompaniyalari tajribasini keng o'rganish va foydalanishdek murakkab vazifalar turibdi. O'zbekiston Respublikasidagi hozirgi texnologik holat va bu sohada mavjud yangiliklarni tahlil qilishda shuni ta'kidlash zarurki, mustaqillik yillarida iqtisodiyotda erkinlashtirish, diversifikatsiyalash hamda tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilishi natijasida ko'p tarmoqli va to'laqonli milliy iqtisodiyot barpo etilishiga erishildi.

Og'ir yuk tashish texnologiyasi kelgusi yillarda transportda tashish hajmini o'sishining turli sur'atlarida jahon temir yo'llarining yuk o'tkazuvchanligi va yuk ko'tara olish qobiliyatini oshirish usullaridan biri sifatida qaralmoqda, chunki hozirgi tashishga bo'lgan talabni zudlik bilan qondirish uchun yangi temir yo'llarni qurish, ularni elektrlashtirish juda kata kapital qo'yilmalarni va vaqtni talab etadi. Og'ir harakatlanuvchi tarkibdan foydalanish ko'plab mamlakatlarda temir yo'l tarmoqlari konsepsiyalarining asosi bo'lib, u vagon oqimlarining parametrlarini aniqlashni, vagon o'qidan relslarga tushadigan og'irligi kattalashgan vagonlarni ishlab chiqarish va kata uzunlikdagi poyezdlarning harakatlanishini tashkil etishni ta'minlaydi.

¹ Саакян Ю.З., Савчук В.Б., Поликарпов А.А. Мировой рынок железнодорожного машиностроения 2019/2020. Аналитический обзор. М.: ИПЕМ, 2021.-144 с.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 oktyabrdagi PQ-329-son "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida belgilangan temir yo'lda tashish xizmatlari bozorida raqobatni shakllantirish va jozibador investitsiya muhitini yaratish orqali tashish jarayonlariga xususiy investitsiyalarni jalb qilish; temir yo'l sohasini transformatsiya qilish va raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish, xizmatlar ko'rsatish jarayonining uzluksizligi, sifatligi, xavfsizligi, barqarorligi va ishonchliligini ta'minlash kabi vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi. Qarorning "2023 — 2026 yillarda temir yo'l transporti sohasini isloh qilish bo'yicha «Yo'l xaritasi»" nomli 1-ilovasida belgilangan yuk tashuvlarni rivojlantirishga qaratilgan transport modelini ishlab chiqish vazifasi ham tadqiqot ishining dolzarbligini yana bir bor ko'rsatib beradi.² Chunki og'ir tipdagi tashishlarni rivojlantirish yuk tashuvlarni rivojlantirish modelining bir qismi sifatida belgilash maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son "«Raqamli O'zbekiston – 2023» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida respublika hududi orqali tranzit yuklarini tashish hajmini oshirish; temir yo'l orqali yuk tashish muddatlarini 40 foizga qisqartirish; yuk tashish xizmatlari hajmini oshirish kabi vazifalarni amalga oshirishga ham dissertatsiya ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.³

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Temir yo'l transportida vagon o'qlardan relslarga tushadigan og'irlikning temir yo'l infratuzilmasi qiymatiga ta'sirini baholash modellari, ko'p omillarni xisobga olgan holda prognozlash usullari, temir yo'l transporti faoliyatini korrelyatsiya – regressiya tahlili asosida baholash K.Odolinski, Carter Hill R., William E. Griffiths, Guay C. Lim, Ch. Sarad, H.Dkhili, D.Lassad, D. Gujarati, M. Zaid Ahmed, D. Olayungbo, D.Vo, N.Thang, T.Ngoc singari xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.⁴

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 oktyabrdagi PQ-329-son "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2023" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

⁴ Carter Hill, R., William E. Griffiths, and Guay C. Lim. 2010. *Principles of Econometrics*. 4th ed. Hoboken, New Jersey: John Wiley & Sons. Chandra, Sarad. 2019. "Correlation and Regression Analysis Using SPSS." *OCEM Journal of Management, Technology & Social Sciences Article*, December. Dkhili, Hichem, and Lassad Dhiab. 2018. "The Relationship between Economic Freedom and FDI versus Economic Growth: Evidence from the GCC Countries." *Journal of Risk and Financial Management* 11 (4). MDPI AG: 81. Gujarati, Damodar N. 2003. *Basic Econometrics*. New York, New York: McGraw-Hill/Irwin, a business unit of The McGraw-Hill Companies. Mohamed, Zaid Ahmed Zaid. 2015. "Correlation and Regression Analysis." *Correlation and Regression Analysis*. Olayungbo, D. 2019. "Effects of Global Oil Price on Exchange Rate, Trade Balance, and Reserves in Nigeria: A Frequency Domain Causality Approach." *Journal of Risk and Financial Management* 12 (1). MDPI AG: 43. Vo, Duc, Thang Nguyen, Ngoc Tran, and Anh Vo. 2019. "What Factors Affect Income Inequality and Economic Growth in Middle-Income Countries?" *Journal of Risk and Financial Management* 12 (1). MDPI AG: 40.

MDH mamlakatlarining iqtisodchi olimlari L.O.Anikeeva-Naumenko, M.I.Mexedov, A.V.Erlix, M.I.Prokofyev, S.N.Beryakov, A.Yu.Ledney, L.A.Chechenova, G.V.Kupriyanova, S.M.Zaxarov, K.P.Shenfeld, V.O.Pevzner, O.Yu.Belosvetova, V.A.Mixeyev, E.G.Leonenko, P.S.Anisimov, D.A. Mecheret, D.O. Vu temir yo'l transportida yuk ko'tara olish qobiliyatini oshirish uchun vagonlarni modernizatsiyalash usullari, uchastkalarining yuk o'tkazish qobiliyatini oshirishda poyezdlarni stansiya yo'llarida turib qolish vaqtini qisqartirish mexanizmlari, uchastka tezligini oshirish, vagon parkidan samarali foydalanish usullari, temir yo'l transportida prognozlash usullari, yangilangan va innovatsion vagonlarni ekspluatatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari, rekonstruktiv tadbirlarni tashkil qilish bilan bog'liq iqtisodiy jarayonlari o'rganilgan.⁵

O'zbekistonda temir yo'l transportida faoliyatining samaradorligiga oid masalalar temir yo'lining integratsiyalashgan tizimdagi tutgan o'rni va xususiyatlari, temir yo'lining asosiy fondlarini qayta tiklash yo'llarini tadqiq qilish, temir yo'l kompaniyasida boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish, vagon o'qlaridan relslarga tushadigan og'irlik o'zgarishini temir yo'llarning holatiga ta'sirini o'rganish orqali A.A.Gulamov, J.S.Fayzullayev, R.V.Rahimov, M.N.Masharipovlarning tadqiqot ishlarida ko'rsatib bergilgan. Shu jumladan, aynan vagonning g'ildirak o'qlaridan relslarga tushadigan yuklamani oshirish bo'yicha R.V.Rahimov chuqur tadqiqot o'tkazgan. R.V.Rahimov tadqiqot ishida vagon o'qlaridan relslarga tushadigan og'irlik o'zgarishini temir yo'llarning mavjud holatiga qay darajada ta'sir etish mumkinligini tajriba-tadqiqot usulida asoslagan.⁶

⁵ Аникеева-Науменко Л.О. Методы повышения эффективности использования вагонов грузового парка на железнодорожном транспорте. Специальность 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством (экономика, организация и управление предприятиями, отраслями и комплексами – транспорт). Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Бераков С.Н. Повышение эффективности работы железнодорожного транспорта на основе совершенствования системы управления инвестиционной деятельностью. 08.00.05 — Экономика и управление народным хозяйством: теория управления экономическими системами; макроэкономика; экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами; управление инновациями; региональная экономика; логистика; экономика труда. 2016 г. Ледней Ю.А. [Разработка методических подходов к оценке экономической эффективности развития транспортной инфраструктуры с учетом объемов и неравномерности перевозок](#). 08.00.05 — Экономика и управление народным хозяйством: теория управления экономическими системами; макроэкономика; экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами; управление инновациями; региональная экономика; логистика; экономика труда. 2021 г. Куприянова Г.В. [Развитие системы прогнозирования спроса на грузовые перевозки железнодорожным транспортом](#). 08.00.05 — Экономика и управление народным хозяйством: теория управления экономическими системами; макроэкономика; экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами; управление инновациями; региональная экономика; логистика; экономика труда. 2003 г. Мечерет Д.А. Совершенствование экономических методов управления производственными ресурсами и работой железнодорожного транспорта. 08.00.05 — Экономика и управление народным хозяйством: теория управления экономическими системами; макроэкономика; экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами; управление инновациями; региональная экономика; логистика; экономика труда. 2000 г. Ву Д.О. Повышение эффективности и конкурентоспособности железнодорожного транспорта по грузовым перевозкам. 08.00.05 — Экономика и управление народным хозяйством: теория управления экономическими системами; макроэкономика; экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами; управление инновациями; региональная экономика; логистика; экономика труда. 2000 г.

⁶ Файзуллаев Ж.С. Интеграциялашган транспорт-логистика тизимини бошқариш самарадорлигини ошириш (“Ўзбекистон темир йўллари” АЖ мисолида). 08.00.13 – Менежмент. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.-2019. Гуламов А.А. Экономическая

Ta'kidlash joizki, yurtimizdagi va xorijlik olimlar tomonidan o'tkazilgan ko'p sonli tadqiqotlarga qaramay, bu muammoning ba'zi jihatlarini yanada chuqurroq o'rganish, og'ir harakatlanuvchi tarkibni, vagon o'qlaridan relslarga tushadigan og'irlikni oshirish natijasida yangilangan vagonlarni ekspluatatsiya qilish jarayonining iqtisodiy ahamiyatini yoritish, temir yo'lining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir etish, ekspluatatsiya harajatlarini tejash darajasini aniqlash temir yo'l transporti ekspluatatsion faoliyati samaradorligini oshirish yo'llarini tadqiq qilishda dolzarb masala hisoblanadi. Bugunga qadar transport turlari o'rtasidagi raqobatli bozor iqtisodiyoti sharoitida temir yo'l transportining yuk ko'tara olish qobiliyatini kuchaytirish orqali temir yo'l transporti ekspluatatsion faoliyati samaradorligini oshirishning nazariy jihatlar va yo'nalishlari maxsus tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi va dissertatsiya mavzusini tanlashga asos sifatida xizmat qildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat transport universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2021-2023 yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston temir yo'llari" AJ dagi raqamli DMR tizimini monitoring qilish va boshqarish uslubiyatini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi temir yo'l infratuzilmasining yuk ko'tara olish zahiralardan foydalangan holda temir yo'l transporti ekspluatatsion faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ ning ekspluatatsion faoliyati natijalarini o'rganish va tahlil qilish asosida muammoni o'rganish;

O'zbekiston temir yo'llarida vagonning yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish hisobiga yuk tashish samaradorligiga erishish yo'nalishlarini ishlab chiqish;

yangi texnik yechimga ega vagonlarni ekspluatatsiya qilish samaradorligiga erishish mexanizmini ishlab chiqish;

yangi texnik yechimga ega yuk vagonlari modellaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini baholashni usulini takomillashtirish;

vagonning g'ildirak o'qidan relslarga tushadigan yuklamani 23,5 tk/m (tonna-kuch/metr) dan 25 tk/mga oshirish natijasida yuzaga keladigan transportdan tashqari samarani aniqlash;

O'zbekiston temir yo'llarida vagon parkining 2030 yilgacha miqdorini prognoz qilish va yangi texnik yechimga ega vagonlarni qo'llash natijasida iqtisod qilinadigan qiymatni aniqlash;

оценка воспроизводства основных фондов железнодорожной компании. Специальность 08.00.05 — Экономика и управление народным хозяйством (экономика, организация и управление предприятиями, отраслями и комплексами — транспорт). АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. СПб.— 2011. Рахимов А.И. Ўзбекистон темир йўллари компаниясида бошқарув стратегиясини ишлаб чиқиш ва унинг самарадорлиги. 08.00.13 – Менежмент ва маркетинг. Т.- 2011.Рахимов Р.В. Нагруженность ходовых частей вагонов и пути и обоснование возможности увеличения осевых нагрузок на железных дорогах Республики Узбекистан. Специальность 05.22.07 – Подвижной состав железных дорог, тяга поездов и электрификация. Диссертация на соискание ученой степени доктора технических наук. Санкт-Петербург – 2020.

vagonning g'ildirak o'qlaridan relslarga tushadigan yuklamani 23,5 tk/mdan 25 tk/mga oshirishning ishchi parki vagonining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida "O'zbekiston temir yo'llari" AJ (aksionerlik jamiyati) olingan.

Tadqiqotning predmetini temir yo'l transportida yangi texnik yechimga ega vagonlarni qo'llashning temir yo'l kompaniyasi ekspluatatsion faoliyatining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri va uni samaradorligi oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning metodlari. Tadqiqot jarayonida statistik manbalarni tahlil qilish, o'rganish, analitik muhokama kabi nazariy usullardan; deduktiv asoslash, modellashtirish, algoritmlash, korrelyatsiya-regressiya tahlili, eksponensial tekkiqlash kabi empirik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

temir yo'l transportida yangi texnik yechimga ega vagonlarni ekspluatatsiya qilish samaradorligini hisoblash usuli takomillashtirildi;

vagonning g'ildirak o'qidan relslarga tushadigan yuklamani oshirish natijasida yo'lovchi tashishdan foydalanadigan aholining transportga sarflaydigan vaqtini tejash orqali transportdan tashqari samarani hisoblash usuli ishlab chiqildi;

temir yo'l transportida yangi texnik yechimga ega vagonlarni ekspluatatsiya qilishning ishchi parki vagonining unumdorligiga ta'sir qilish mexanizmi ishlab chiqildi;

temir yo'l transportida yangi texnik yechimga ega vagonlarni qo'llash natijasida ishchi parki vagonlarining 2030 yilgacha ko'p omillik prognoz qiymatlari ishlab chiqildi va vagon birligi xisobiga iqtisod qilinadigan qiymati aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o'z aksini topgan:

yangi texnik yechimga ega yuk vagonlarini temir yo'lning ekspluatatsion faoliyatida foydalanishni iqtisodiy samaradorligini baholashni algoritmlash orqali iqtisodiy samaradorligini baholash metodikasi takomillashtirildi, metodika universallik, diskretlik (uzluksizlik), natijaning ishonchliligi xususiyatlarga ega bo'ldi;

poyezdning o'rtacha tarkibi, o'q yuklamasining o'sishini xisobga olgan holda berilgan hajmlarda, infratuzilma tomonidan ruxsat etilgan qiymatlar doirasida har xil turdagi yuklarni yuqori samarali tashishni ta'minlashga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi; yangilangan vagonlarni joriy qilishga investitsiyani amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy ta'sirlar doirasi aniqlandi;

vagon parkining korrelyatsion-regression tahlili natijasida vagon parkiga eng ko'p ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash orqali vagon sonini to'g'ri rejalashtirish va prognozlashning oqilona modeli yaratildi.

temir yo'lning ekspluatatsion faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi vagon o'qidan relslarga tushadigan yuklamani 23,5 tk/mdan 25 tk/mga oshirish orqali vagon parkining tarkibiy o'zgarishi natijasida vagon unumdorligiga ta'sir qilish mexanizmi ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullarning ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy va tahliliy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, ularning mantiqiy, matematik-statistik va ekonometrik tahlili samaradorligi va takliflarning amaliyotga joriy etilganligi va vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, temir yo'l transportining yuk ko'tarish va yuk o'tkazish qobiliyatini oshirish yo'llarini tadqiq qilishda xorijiy tajriba o'rganilib, innovatsion vagonlarni joriy qilishning rekonstruktiv tadbirlari ham xorijda sinovdan o'tgan yo'nalishlar asosida va O'zbekistonda olib borilgan texnologik tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, temir yo'l transportining ekspluatatsion faoliyatini samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiya etilgan metodning qo'llanilish algoritmi, vagon parkining unumdorligining o'zgarishi, vagon parkining tashkil etilishiga ta'sir qiluvchi omillarning saralangan holda keltirilgan modeli temir yo'l transporti ekspluatatsion faoliyatining samaradorligining oshirish bo'yicha ilmiy va o'quv va materiallari mazmunini boyitishda foydalanilgan. Shuningdek, temir yo'l transportining mavjud yo'l holatidan kelib chiqib innovatsion vagonlarni ekspluatatsiyaga joriy etish orqali temir yo'l transporti ekspluatatsion faoliyatining samaradorligining oshirishga erishish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Temir yo'l infratuzilmasining yuk ko'tara olish zahiralardan foydalangan holda temir yo'l transporti ekspluatatsion faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy natijalar:

1. Dissertatsiya ishi doirasida "O'zbekiston temir yo'llari" AJda yangi texnik yechimga ega vagonlarni ekspluatatsiya faoliyatiga joriy etish tadbirining iqtisodiy samaradorligini aniqlashga qaratilgan blok sxema ishlab chiqildi. Ushbu ilmiy yangilik yuzasidan taklifi "O'zbekiston temir yo'llari" AJning 2020 yil "5" martdagi 1-sonli "Yagona oyna" tamoyili bo'yicha yuk tashish sohasida xizmatlar ko'rsatish uchun mijozlar bilan o'zaro munosabatlar tizimini yaratish va amalga oshirish" Nizomining 3.1.1.-bandida foydalanilgan. Ushbu taklifning tadbir etilishi ishlab chiqilgan ergonomik algoritm asosida kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda temir yo'l transportida vagonlarning yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish bo'yicha investitsion loyihaning samaradorligini hisoblash imkonini berdi.

2. Dissertatsiya ishi doirasida "O'zbekiston temir yo'llari" AJda vagonlarni modernizatsiyalash loyihasi doirasida yuk aylanmasi va harakat intensivligining oshishi, transport vositalari harakati xarajatlarini kamaytirish, aholining transportga sarflagan vaqtini qisqartirish hisobiga vagonning g'ildirak o'qidan relslarga tushadigan yuklamani 23,5 tk (tonna-kuch) dan 25 tk (tonna-kuch) ga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan transport samarasi qiymati aniqlandi. Ushbu taklifni "O'zbekiston temir yo'llari" AJning 2024-yil 6-maydagi № 01/1736-24-son ma'lumotnomasi bilan uning faoliyati amaliyotida tadbir qilinishi natijasida aniqlangan transport samarasi mamlakat hamda temir yo'l miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni to'g'ri tartibga solish imkonini berdi.

3. Dissertatsiya ishi doirasida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda vagonning g‘ildirak o‘qlaridan relslarga tushadigan yuklamani 23,5 tk (tonna-kuch) dan 25 tk (tonna-kuch) ga oshirishning ishchi parki vagonining unumdorligiga ta’sir qilish metodologiyasi ishlab chiqildi. Ushbu taklifni “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning 2024-yil 6-maydagi № 01/1736-24-son ma’lumotnomasi asosida uning faoliyati amaliyotiga joriy qilinishi natijasida vagon unumdorligi 2030 yilga kelib oshishi, vagonning talab etiladigan parkiga ehtiyojning kamayishi hamda vagonlar defitsiti yo‘qolishi ko‘rsatib berildi.

4. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda temir yo‘l transporti ekspluatatsiya faoliyati samaradorligi mezonlarini tadqiq qilishda vagonning ishchi parkini aniqlashning korrelyatsiya-regressiya tahlili asosida 2030 yilgacha trend prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan. Vagon o‘qidan relslarga tushadigan og‘irlikning 23,5 tk (tonna-kuch) dan 25 tk (tonna-kuch) ga o‘zgarishining vagon parkiga ta’sir etish koeffitsienti ishlab chiqildi. Ushbu taklifni “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning 2024-yil 6-maydagi № 01/1736-24-son ma’lumotnomasi bilan amaliyotiga joriy qilinishi natijasida, 2030 yilga kelib vagon ishchi parkinining vagon birligi bo‘yicha qiymatini 25% gacha tejab qolinishi hisoblab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 3 ta respublika va 1 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ishlar e‘lon qilingan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va xajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan dan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 170 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti belgilangan, tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Temir yo‘l transporti ekspluatatsion faoliyat samaradorligini oshirishning nazariy-amaliy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida harakatlanuvchi tarkibdan foydalanish ko‘rsatkichlarining turkumlanishi, ekspluatatsion faoliyat ko‘rsatkichlarining hajm va sifat turlari bo‘yicha guruhlarga bo‘linishi, yuk vagonlardan foydalanishning hajm va sifat ko‘rsatkichlari, lokomotivlardan foydalanishning hajm va sifat ko‘rsatkichlari o‘rganildi, hamda ularning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta’sir etish masalalari ko‘rib

chiqildi. Temir yo'l transportining asosiy texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari vagon parki (ishchi), yuk poyezdining o'rtacha brutto og'irligi, lokomotivning o'rtacha sutkalik unumdorligi, yuk poyezdining o'rtacha uchastka tezligi, vagon aylanmasi, tranzit vagonning bitta texnik stansiyada turish vaqti, vagonning yuk operatsiyasida turish vaqti, vagonning o'rtacha statik yuklamasi, yuklarni jo'natish, texnik tezlik, vagonning o'rtacha sutkalik unumdorligi kabi ko'rsatkichlarning ko'p yillik dinamikasi o'rganildi va tahlil qilindi.

Temir yo'l transportining ekspluatatsiya faoliyatining qay darajada unumli amalga oshirilganligi hajm va sifat ko'rsatkichlarining darajasini belgilab beradi. O'z navbatida ekspluatatsion faoliyatga bevosita ta'sir ko'rsatadigan og'ir yuk ko'tara oluvchi vagonlarni qo'llash temir yo'lning quyidagi iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi:

yuk o'tkazish va yuk ko'tara olish qobiliyati: har bir vagonga tashilgan yuk og'irligini oshirish imkonini beradi, bu umumiy yuk aylanmasini va harakatlanuvchi tarkibdan foydalanish samaradorligini oshirishga yordam beradi;

tashish narxi: vagonlarning yuk ko'tarish qobiliyatining oshishi bilan tashilgan yuk birligiga nisbatan ekspluatatsiya xarajatlari kamayadi, bu temir yo'l transportini boshqa transport turlariga nisbatan tejamkor qiladi;

infratuzilmaga investitsiyalar: og'ir yuk ko'taruvchi vagonlarga moslashish temir yo'l infratuzilmasini mustahkamlashga katta sarmoya kiritishni talab qiladi, bu esa sanoatning kapital xarajatlariga ta'sir qiladi;


infratuzilmaning eskirishi: poyezdlarning og'irlashuvi temir yo'lning eskirishini tezlashtiradi, bu esa yo'l infratuzilmasiga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xarajatlarini oshiradi, buning oldini olish uchun esa rekonstruktiv tadbirlar ishlab chiqilishi lozim;

logistika samaradorligi: vagonlarning yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish yuklash va tushirish operatsiyalari vaqtini va yuklarni yetkazib berishning umumiy vaqtini qisqartirish orqali transport logistikasini yaxshilaydi.

Yuqoridagi jihatlarni xisobga olgan holda ekspluatatsion faoliyat ko'rsatkichlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq. "O'zbekiston temir yo'llari" AJning asosiy faoliyat ko'rsatkichlaridagi dinamik o'zgarishlar bugungi kungacha O'zbekiston temir yo'llarida juda ko'plab yirik loyihalarning amalga oshirilishi natijasidir. O'zbekiston temir yo'llarining mamlakatning umumiy transport tizimida tutgan o'rnini va ulushini quyidagi statistik ma'lumotlarni tahlil qilgan holda ko'rishimiz mumkin.


Barcha transport turlari bo'yicha yuk tashish miqdori 2011-2023 yillar davomida deyarli bir xil tendensiyada o'sib borgan. Ya'ni, 2011 yilda jami tashilgan yuklardagi transport turlarining ulushi 2023 yilda ham deyarli saqlanib qolgan. 2023-yilda barcha transport turlari orqali 1443,3 million tonna yuk tashildi (1-rasm).

2011 yilda yuk tashish hajmida avtomobil transportining ulushi 82 % bo'lgan bo'lsa, 2023 yilga kelib bu ko'rsatkich 90 % ni tashkil qilgan, ya'ni 8 % ga o'sganini ko'rishimiz mumkin. Temir yo'l va quvur transportining ulushi esa 7% dan mos ravishda 2 % va 3 % ga tushgan (2-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida turli transport turlari bo'yicha 2011-2023 yillar davomida yuk tashish hajmi dinamikasining grafik tasviri, mln.t⁷


Yuk tashish hajmida temir yo'l transporti kichik ulushni tashkil qilgan bo'lsa, yuk aylanma ko'rsatkichida esa temir yo'l transportining yaqqol ulushini ko'rish mumkin. Chunki, yuk aylanma ko'rsatkichi yuklarning tashish masofasini ham xisobga oladi, temir yo'l transporti esa uzoq masofalarga yuklarni yetkazib berganligi uchun bu ko'rsatkichda ulushi kattaroq qiymatga ega. 2023 yilda temir yo'l transportida yuk aylanmasi 26,5 mln.t-km ni tashkil etdi. Bu esa jami transport turlari ichida 36,57 % ga teng degani (3-rasm).



2-rasm. 2011 yilda (chap) va 2023 yilda (o'ng) O'zbekiston Respublikasida turli transport turlari bo'yicha yuk tashish hajmining solishtirma og'irligi⁸

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan




3-rasm. 2011 yilda (chap) va 2023 yilda (o'ng) O'zbekiston Respublikasida turli transport turlari bo'yicha yuk aylanma hajmining solishtirma og'irligi⁹

Temir yo'l transportining jami transport turlarining bajarayotgan ish hajmidagi ulushi uning asosiy fondlariga nisbatan hamda, hududiy jihatdan keng qamroviga nisbatan juda kam. Chunki temir yo'l transporti avtomobil transportiga tezlik, o'z vaqtida yetkazib berish kabi parametrlar bo'yicha o'z pozitsiyasini berib bormoqda. Bunga temir yo'l liniyalarning haddan ziyod yuk tashuvlari bilan to'lib ketganligi, ya'ni ko'proq tashish imkoniyatlarining cheklanganligi sabab bo'lmoqda. Shuning uchun temir yo'l transportida bir vaqtning o'zida ko'proq yuk tashish ya'ni yuk ko'tara olish qobiliyatini oshirishni o'rganish dolzarb muammo xisoblanadi.

Yuk ko'tarish qobiliyati vagon o'qiga tushadigan maksimal ruxsat berilgan yuklamaga bog'liq. Rivojlangan temir yo'l tarmog'iga ega ko'p mamlakatlar og'ir yuklamali harakatlanuvchi tarkibdan foydalanish strategiyasini anchadan buyon va samarali tarzda qo'llab kelishmoqda. Ushbu mamlakatlarda o'rtacha yuk tashish zichligi yangilangan temir yo'l uchastkalari, modernizatsiyalangan temir yo'l uchastkalari, turli hajmdagi vagon o'qiga tushadigan og'irlik qo'llanilayotgan temir yo'l uchastkalarini ko'rstakichlarini solishtirish maqsadida hisoblab chiqilgan.

O'zbekistonda yuk tashishning o'rtacha zichligi solishtirilayotgan mamlakatlar ichida eng kam qiymatga ega, bu ko'rsatkichni AQSh bilan solishtirganda 110 barobar kam. Bu ko'rsatkich qachonki 1 km temir yo'lda yil davomida ko'proq hajmda yuk tashilsa katta chiqadi. Bu natijaga vagon parkini ko'paytirish orqali emas, balki vagon o'qiga tushadigan og'irlikni oshirish hisobiga erishilgan. Bu esa eng muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri – vagon unumdorligini ham oshirishga imkon beradi (4-rasm).

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan



4-rasm. Yuk tashishning o'rtacha zichligi, t.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, vagon o'qiga tushadigan og'irlikning oshishi natijasida yuk tashish zichligi ortadi, poyezd massasining og'irligi, ya'ni poyezdning brutto og'irligi oshadi, bu esa o'z navbatida yuk aylanma bruttoning oshishiga olib keladi. Yuk aylanma brutto oshgandan so'ng, lokomotiv parkinging soni o'zgarish natijasida lokomotiv unumdorligi ham oshadi. Bundan tashqari, vagon og'irligini oshishiga olib keladi, bu esa yuk aylanma nettoning o'sishiga ta'sir ko'rsatadi va natijada vagon unumdorligi ortadi.

Shuni hisobga olgan holda, O'zbekistonda vagon o'qiga tushadigan og'irlikni oshirishning temir yo'l transportining ekspluatatsion faoliyati samaradorligiga ta'sir etish metodikasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston temir yo'llari” AJ da ekspluatatsion faoliyat samaradorligini oshirishning uslubiy asoslari**” deb nomlangan ikkinchi bobida vagon parkini innovatsion rivojlantirish yo'nalishlari, O'zbekiston temir yo'llarida yangilangan yuk vagonlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash metodikasi takomillashtirildi, temir yo'l uchastkasida vagonning yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish bilan bog'liq rekonstruktiv tadbirlarning temir yo'lning ekspluatatsion faoliyati samaradorligiga ta'sir etish yo'nalishlari va mexanizmlari ishlab chiqildi.

O'zbekistonda vagonning g'ildirak juftlari o'qlaridan relslarga tushadigan yuklamaning ruxsat etilgan qiymati 23,5 tk/mgacha. Lekin ushbu qiymatni 25 va 27 tk/mgacha oshirish uchun yo'llarning mavjud holati texnik talablar jihatdan imkon beradi, faqat ma'lum darajadagi shartlar bajarilsa bo'ldi. Iqtisodiy jihatdan esa samarali ekanligini isbotlash uchun maxsus metodika mavjud bo'lib, u juda katta xisob-kitoblar tizimini o'z ichiga olgan.

Ushbu xisob kitoblarni soddalashtirish va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichini aniqlashda xatoliklarga yo'l qo'ymaslik hamda ko'rsatkichlarning ixtiyoriy qiymatida natijaviy ko'rsatkichning qay darajada o'zgarishi, qaysi ko'rsatkichlar natijaviy omilga ko'proq ta'sir ko'rsatishini baholash uchun

ergonomik algoritmlash tilida metodika takomillashtirildi (*dissertatsiyaning 3-ilovasida ko'rsatkichlarga izox berilgan*).

1-jadval

Yangi texnik yechimga ega yuk vagonlari modellaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini baholash tizimi ko'rsatkichlarining algoritmlashdagi shartli belgilari¹⁰

| No | Shartli belgilar | Ko'rsatkichlar | No | Shartli belgilar | Ko'rsatkichlar |
|----|------------------|---------------------|----|------------------|--------------------|
| 1 | 1.0 | $\Sigma \Delta E_0$ | 17 | 1.3.1 | e_{tkm} |
| 2 | 1.1 | ΔE_1 | 18 | 1.4 | ΔE_4 |
| 3 | 1.1.1 | e_e | 19 | 1.4.1 | ΔE_{41} |
| 4 | 1.1.2 | e_T | 20 | 1.4.1.1 | e_{vkm} |
| 5 | 1.1.3 | k_N | 21 | 1.4.2 | ΔE_{42} |
| 6 | 1.1.4 | N_{ort}^{yil} | 22 | 1.4.3 | ΔE_{43} |
| 7 | 1.1.5 | R_{yuk} | 23 | 2.0 | ΔE_{kelt} |
| 8 | 1.1.6 | $R_{bo'sh}$ | 24 | 3.0 | C_{sol} |
| 9 | 1.1.7 | $k_{\omega bo'sh}$ | 25 | 4.0 | k_{sam}^{inv} |
| 10 | 1.1.8 | $k_{\omega yuk}$ | 26 | 01 | Δa_{yuk} |
| 11 | 1.2 | ΔE_2 | 27 | 02 | $\Delta a_{bo'sh}$ |
| 12 | 1.2.1 | e_{l-km}^{el} | 28 | 03 | Δb_{yuk} |
| 13 | 1.2.2 | e_{l-km}^{tep} | 29 | 04 | $\Delta b_{bo'sh}$ |
| 14 | 1.2.3 | δ_e | 30 | 05 | Δc_{yuk} |
| 15 | 1.2.4 | k_V | 31 | 06 | $\Delta c_{bo'sh}$ |
| 16 | 1.3 | ΔE_3 | 32 | 07 | $a_T^{o'rt}$ |


Yangi texnik yechimga ega yuk vagonlarni joriy qilish uchun yangi yuqori mustahkam po'latlardan foydalanish hisobiga tara og'irligini kamaytirish, vagonning umumiy imkoniyatlaridan to'liq foydalangan holda original konstruktiv sxemalarini qo'llash orqali kuzov quvvatini oshirish, ruxsat etilgan o'q yuklamasi va tezliklarning oshishi innovatsion telejkalardan foydalanishga qaratilgan rekonstruktiv tadbirlarning yo'l xaritasi ishlab chiqildi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda, ya'ni aniqlanishi kerak bo'lgan ko'rsatkichlar va boshlang'ich ko'rsatkichlarning shartli belgilaridan foydalangan holda 4 ta modul bo'yicha algoritmlash sxemalari tuzildi.

Algoritmlash 1-modul "poyezdlarni tortish uchun yoqilg'i-energetika resurslarini sarflash bilan bog'liq xarajatlarning o'zgarishini hisoblash" uchun algoritmlash sxemalarini qurishdan boshlangan. Bu yerda modulni ichida hisoblash algoritmi A, B, C, D bosqichlarga bo'lingan. Har bir bosqich so'ngida bosqich tugaganligi va keyingi bosqichga o'tish uchun belgi bor. 2-modulda harakatning uchashta tezligining o'zgarishi natijasida lokomotivlarga texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarining o'zgarishini hisoblash uchun algoritmlash jarayoni 2 ta bosqichga ajratildi – E va F. 3-modulda temir yo'lining faoliyat yuritish va yuk vagonlariga texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarning o'zgarishini hisoblash uchun algoritmlash jarayoni G, H, I, J bosqichlariga bo'linib ko'rsatilgan. 4-modulda (5-

¹⁰ Muallif tomonidan shakllantirildi

rasm) iqtisodiy samaradorlik koeffitsienti – ya’ni yakuniy samaradorlik koeffitsienti hisoblandi. Bunda jarayonlar K, L, M, N bosqichlariga bo’lindi.




5- rasm. 4-modul “texnik xususiyatlari yaxshilangan vagonlarning iqtisodiy samaradorlik koeffitsienti hisoblash” algoritmi¹¹

Yangi texnik yechimga ega yuk vagonlari modellaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi koeffitsientini aniqlash uchun 32 ta ko’rsatkichlarni hisoblash kerak bo’ladi. O’z navbatida 32 ko’rsatkichni hisoblash uchun 65 ta boshlang’ich ko’rsatkichlardan foydalanildi. Boshlang’ich ko’rsatkichlarning qiymatiga mos ravishda Innovatsion yuk vagonlari modellaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi koeffitsienti o’zgaradi. Bu ko’rsatkichlarning qiymati

¹¹ Rasmiy manbaalar asosida muallif ishlanmasi

qanday bo'lishidan qat'i nazar ular oldindan ma'lum bo'lishi kerak, ya'ni formulalarning hisobidan oldin qayd etilgan bo'lishi kerak.




6-rasm. Temir yo'l transportida vagonning yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish hisobiga yuk tashish samaradorligiga erishish yo'nalishlari¹²

Vagon o'qi yuklamasini 25 tk/mga oshirish uchun va bunda yo'lga ta'sir etishni oldini olish uchun yangi vagonlarning konstruktiv yechimlari taqdim etilishi lozim. Tegishli konstruktiv yechimlarni qo'llash yo'lning holatiga quyidagi ta'sir ko'rsatishi mumkin: salbiy ta'sir mavjud – agar harakat tezligi ruxsat etilgan normadan katta bo'lsa. Bunday holda yo'lni qoldiq deformatsiyasining o'sish surati oshadi, poyezdlarning harakati paytida yo'lga ko'ndalang va vertikal kuchlarning ta'sir qilishi natijasida yo'lni ta'mirlash harajatlari oshadi; salbiy ta'sir mavjud emas - agar harakat tezligi ruxsat etilgan normadan katta bo'lmasa. Lekin, bunda harakatning o'rtacha tezligi pasayadi, natijada harakatlanuvchi tarkibga ehtiyoj ortib, energiya iste'moli ortadi, poyezd soni kamayib daromad pasayadi. Bu esa ekspluatatsion faoliyat samaradorligini oshishiga ta'sir ko'rsatmasligi mumkin.

Shuning uchun tezlikning ruxsat etilgan normasini oshirishga qaratilgan rekonstruktiv tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir (6-rasm).

¹² Rasmiy manbaalar asosida muallif ishlanmasi



7-rasm. Yangi texnologik yechimga ega vagonlarni ekspluatatsiya qilish samaradorligiga erishish mexanizmi¹³

Yo'lga ruxsat etilgan ta'sir ko'rsatish normalari g'ildiraklardan relslarga tushadigan yuklamaga cheklovni to'g'ridan to'g'ri o'rnatmaydi, lekin bir vagon telejkasining o'qlar guruhidan tushadigan dinamik pogon yuklamani maksimal qiymatini aniqlaydi. O'q yuklamasini oshirganda, dinamik pogon yuklamani ruxsat etilgan yuklamadan oshib ketmasligi uchun ikki yo'li bor: K_{do} dinamika ko'effitsientini kamaytirish, va l telejka bazasini ko'paytirish. Dinamika ko'effitsienti va o'q yuklamasi bir biriga teskari proporsional, agar dinamika ko'effitsienti katta bo'lsa o'q yuklamasini oshirib bo'lmaydi, agar o'q yuklamasi 25 tk/m ga teng deb olsak, dinamika ko'effitsienti 0,4 va 0,3 qiymati orasida bo'lishi kerak, agar o'q yuklamasini 27 tk/m ga teng deb olsak, dinamika ko'effitsienti 0,3 va 0,2 orasidagi qiymatga teng bo'lishi kerak.¹⁴

Demak, pul mablag'larining cheklanganligini inobatga olib, temir yo'lning yuk ko'tara olish qobiliyatini oshirish bo'yicha tadbirlarga sarflanadigan harajatlarni minimalligini ta'minlash lozim. Buning uchun temir yo'lning mavjud rels tipi va ballast qatlamidan foydalanish lozim. Hozirda mavjud P50 va P65 rels tiplarining texnik parametrlaridan kelib chiqiladigan bo'lsa, vagon o'qiga tushadigan og'irlik o'zgarishlariga P65 tip relsining chidamliligi harajatlarni minimallashtirishi

¹³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

¹⁴ Бороненко Ю.П. Стратегические задачи вагоностроителей в развитии тяжеловесного движения. Транспорт Российской Федерации. Подвижной состав. №5 (48) 2013.

mumkin. Shuning uchun yangi texnologik yechimga ega vagonlarni ekspluatatsiya qilish samaradorligiga erishish mexanizmi ishlab chiqishda P65 rels tipining imkoniyatlaridan kelib chiqildi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ da yangi texnik yechimga ega vagonlarni joriy etish orqali ekspluatatsion faoliyati samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish**” deb nomlangan uchinchi bobida temir yo‘l transportining ekspluatatsiya faoliyatining ko‘rsatkichlarini prognoz qilishda adaptiv modellarni qo‘llash uslubi ko‘rsatib berildi, temir yo‘l transporti ekspluatatsiya faoliyati samaradorligi mezonlarini tadqiq qilishda vagon parkini aniqlashning korrelyatsiya-regressiya tahlili metodikasi, vagon unumdorligiga ta’sir etish mexanizmi ishlab chiqildi.

2-jadval

Vagon parkining prognoz modelini aniqlash uchun boshlang‘ich ma'lumotlar


